



MORFOLOGIK SHAKLLARNING MORFEMIKA OBYEKTI SIFATIDA O'RGANILISHI

Babadjanov Mansur Kurbanbayevich

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning morfologik birliklari tahlili keltirilgan. Morfologik tahlil lingvistik usul bo'lib, so'zlarning tuzilishi va tarkibiy qismlarini, jumladan, old qo'shimchalar, qo'shimchalar, o'zak va fleksiyonlarni o'rGANISH bilan shug'ullanadi. U so'zlarning qanday hosil bo'lishini va uning tarkibiy qismlarining ma'noga qanday hissa qo'shishini tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: morfemika, asos, qo'shimcha, agglyutinativ tillar, ildiz, affiks, prefiks, allamorf, morf, tub so'z, yasama so'z.

Аннотация: В данной статье представлен анализ морфологических единиц языка. Морфологический анализ — лингвистический метод, изучающий структуру и компоненты слов, включая приставки, суффиксы, основы и флексии. Основное внимание уделяется анализу того, как формируются слова и как их компоненты влияют на значение.

Ключевые слова: морфемика, основа, суффикс, агглютинативные языки, корень, аффикс, приставка, алломорф, морф, корневое слово, искусственное слово.

Abstract: This article presents an analysis of the morphological units of the language. Morphological analysis is a linguistic technique that studies the structure and components of words, including prefixes, suffixes, stems, and inflections. It focuses on analyzing how words are formed and how their components contribute to meaning.

Key words: morphemics, base, suffix, agglutinative languages, root, affix, prefix, allomorph, morph, root word, artificial word.

Tilni yaruslarga ajratishning asosiy shartlaridan biri, har bir yarusning o'z birligiga ega bo'lishidir. Ma'lumki, fonetik — fonologik yarusning birligi fon va fonema deb ataladi. Fon va fonema nutqdagi eng kichik ma'no anglatmaydigan, lekin ma'no anglatuvchi birliklarning ma'nosini o'zgartishga xizmat qiladigan birliklardir.

Morfologiyaning birligi esa — nutq faoliyatidagi eng kichik ma'no anglatuvchi elementdir. Bu elementning nutqdagi ko'rinishi morf va tildagi ko'rinishi morfema deyiladi. O'zbek tilidagi **gulchi** so'zi ikkita morfemadan tashkil topgan, chunki bu so'zning tarkibida ikkita eng kichik ma'no anglatuvchi birlik: *gul* va *chi* bor. *Gul* va *chi* elementlari boshqa kichikroq ma'nodor bo'laklarga bo'linmaydi. **Gul** so'zini *g-u-l* singari bo'laklarga bo'lish mumkin, lekin ular hech qanday ma'no anglatmaydi. **Gulchilarimizdan** degan so'zda esa, oltita eng kichik ma'no anglatuvchi bo'laklar bor: *Gul-chi-lar-im-iz-dan*. **Gul** so'zning o'zagi, **chi** — kasbni ko'rsatuvchi, **lar** — ko'plik



ma'nosini anglatuvchi, **im** — shaxs ma'nosini, **iz** — ko'plik ma'nosini va **dan** — chiqish ma'nosini anglatuvchi elementlardir. Shunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin.

So'zlarning tarkibiy qismlari bilan shug'ullanadigan morfologik tahlil tabiiy tilni qayta ishlashning asosiy yo'naliшlaridan biridir. Ushbu tahlilni yanada samarali qilish uchun bir nechta turli usullar ishlab chiqilgan va joriy qilingan. Bir qarashda, leksikada barcha so'zning flektiv shakllarini saqlash va hech qanday morfologik tahlilsiz tilga ishlov berish mumkindek tuyuladi. Bu yondashuv morfologik jihatdan sodda tillar uchun mos bo'lishi mumkin, ammo affikslar birikkanidan keyin so'z yuzlab turli shakllarni olishi mumkin bo'lgan agglyutinativ tillar uchun qo'llash mumkin emas¹.

Bu sohada hozirgacha bajarilgan ishlarni ikki sinfga birlashtirish mumkin: ildizga asoslangan yondashuv va affiksni olib tashlash yondashuvi. Birinchi yondashuvda so'zning o'zagi dastlab topiladi, so'ngra affikslar aniqlanadi. Ikkinci yondashuvda affikslarning aniqlanishi birinchisidan farqli ravishda birinchi bo'lib amalga oshadi. Affikslar olib tashlangandan so'ng, so'zning qolgan qismini o'zak deb hisoblash mumkin yoki bu taxminni tasdiqlash uchun leksikadan foydalanish mumkin.

Ildiz asosidagi morfologik yondashuv so'zlarni ildizga yoki asos shakllariga bo'lish orqali ularga qo'shilgan turli morfemalarning ma'no hosil qilish jarayonini tahlil qilishning lingvistik usulidir. Ushbu yondashuv ko'pincha arab yoki rus kabi murakkab flektiv tizimli tillarni o'rghanishda qo'llaniladi, bu yerda so'zlar jumladagi vazifasiga qarab sezilarli darajada o'zgarishi mumkin.

Affikslarni olib tashlash usuli – so'zlarni tarkibiy qismlarga bo'lish orqali tahlil qilish va ma'nosini tushunish uchun ishlatiladigan usul. Bu so'zning ildiz yoki asosiy shaklini aniqlash uchun so'zdan prefiks va qo'shimchalarni aniqlash hamda olib tashlashni o'z ichiga oladi.

Morf va morfema hamma vaqt bir-biriga teng kelavermaydi. Til birligi bo'lmish morfema nutqda bitta morf orqali va ba'zi hollarda bir necha morf orqali ifodalanishi mumkin. O'zbek tilida otlarda ko'plik bitta – **lar** morfemasi bilan ifodalanadi. Bunday hollarda morf va morfema bir-biriga mos keladi. Yoki chiqish ma'nosini kelishik qo'shimchasi orqali, ya'ni – **da** ham xuddi shunday hodisaga misol bo'la oladi. Lekin jo'naliш ma'nosini o'zbek tilida turli qo'shimchalar bilan amalga oshiriladi: (-ga, -ka, -qa). Bunday hollarda bir morfema uchta morf orqali namoyon bo'ladi. Odatda bir morfemaga kiruvchi morflarni shu morfemaning variantlari yoki allomorflari deyiladi. Demak, allomorf deb turli formatga ega bo'lgan, lekin bir xil ma'no anglatadigan va bir morfemaga kiradigan morflarga aytildi. Allomorflarga misollar hind-yevropa tillarida ko'plab uchraydi: [ы] [и] [а] [я] kabi rus tilidagi ko'plikni ko'rsatuvchi allomorflar shular jumlasidandir.

¹ D. Jurafsky & J.H. Martin, Speech and language processing : an introduction to natural language processing, computational linguistics, and speech recognition (Upper Saddle River, N.J. : Prentice Hall, 2000).

Morfema til ifoda sistemasida tovushdan keyin turadigan semantik-morfologik birlik bo‘lib, so‘zning eng kichik ma’noli qismidir². Morfema tushunchasi hamma vaqt tilning bir semantik-morfologik birligini uning ikkinchi bir semantik-morfologik birligi bilan nisbatlaganda mavjud bo‘ladi. Masalan, *kitobxon* so‘zi ikki ma’noli qismdan iborat bo‘lib, ular *kitob* va *xon* qismlaridir. Uning birinchi qismi alohida olinganda, so‘zdir. Biroq bu so‘zga – *xon* qo‘sishimchasi qo‘silar va undan yangi so‘z hosil qilinar ekan (*kitobxon*), birinchi qism ikkinchi qismiga nisbatan alohida emas, so‘zning qismi deb baholanadi. Shunga ko‘ra – *xon* elementi ham so‘zning qismi sifatida olinadi va u oldingi qismiga nisbatan baholanadi – biri ikkinchisiga nisbatan alohida-alohida morfema hisoblanadi: o‘zak morfema; ergash. (affiks) morfema. Morfemikaga ana shu nuqtai nazardan yondashiladigan bo‘lsa, u morfemalar (so‘zning ma’noli qismlari) haqidagi ta’limotdir.

So‘z qismlardan (eng kamida ikki qismdan) tashkil topmagan bo‘lsa, u tub so‘z sifatida baholansa, bu o‘rinda morfema haqida fikr yuritib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, «So‘z birgina morfemadan iboratdir», — deb qarash maqsadga muvofiq emas. Demak, morfema tushunchasi so‘z qismlardan iborat bo‘lgandagina paydo bo‘ladi. Jumladan, *ko‘z, muz, kel, bir, ol, non, ish, ter, yur, tur, gul, tog’, bog’* va boshqalar alohida olinganda, morfemadan keyin turadigan yirik til birligi bo‘lib, ular so‘zlardir. Bu so‘zlar gapda ishtirok etganda, ma’lumki, albatta, qandaydir bir grammatik formaga ega bo‘ladi. Bu forma nol forma ko‘rinishida bo‘lishi ham, ko‘rsatkich (alohida) ishtirok etgan ko‘rinishda ham bo‘lishi mumkin. Qiyoslang: 1. *Kuz kelishi bilan qishki-kuzgi ishlarga tayyorgarlik boshlab yuborildi;* 2. *Har yili kuzda bir dala aylanib kelaman.* Birinchi gapdagi *kuz* so‘zini grammatik ma’no ifodalovchi nol ko‘rsatkichlariga nisbatan (bosh kelishik, birlik...) o‘zak morfema sifatida baholash mumkindek tuyulsa ham, u o‘zak morfema emas, balki asos – forma yasalish asosidir. Demak, gap tarkibidagi *kuz* so‘zi (so‘z-formasi) bilan alohida olingan, lug‘aviy birlik sifatida qaraladigan kuz so‘zi o‘rtasida farq bor (asos va so‘z sifatida farq qiladi).

Keyingi gapda *kuzda* so‘zi, ko‘rinib turibdiki, ikki qismdan iborat: *kuz* – o‘zak morfema; *da* – affiks morfema. Bu so‘zning morfem tahliliga ko‘radir. Morfologik tahlilga ko‘ra ham bu so‘z ikki qismdan iborat: *kuz* – forma yasalish asosi; *da* – grammatik ma’no ifodalovchi vosita. Xullas, ikkinchi holatda so‘zning *kuz* – qismi morfem tahliliga ko‘ra o‘zak morfema, morfologik tahlilga ko‘ra forma yasalish asosidir.

Tub so‘zlar shaklan go‘yo so‘zlarga tengdek tuyuladi, ya’ni tub so‘zni yasama so‘zga nisbatan baholaydigan bo‘lsak, haqiqatan ham, xuddi shunday holat ko‘zga tashlanadi: *kuz* — tub so‘z; *kuzgi* — yasama so‘z. Bu o‘rinda tub so‘z shaklan, ikkinchi — yasama so‘zning o‘zak qismiga tengdir. Biroq yuqorida ko‘rsatilganidek, ular

² Ёрмат Тожиев. Ўзбек тили морфемикаси. Тошкент — 1992, bet-5



mohiyat e'tibori bilan, semantik-grammatik xususiyatlariga ko'ra teng emas. Faqat amalda so'zning tub yoki yasama ekanligini to'g'ri belgilashda uning tub deb olingan qismi o'zakka qiyoslanadi.

Tilda ikki va undan ortiq morfemali so'zlar tub holda ham, yasama holda ham uchraydi. Jumladan, *gulli*, *guldon*, *gulkor*, *gulchilik* so'zlari asosan ikki morfemadan tashkil topgan va gul yasovchi negiziga yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasalgan yasama so'zlardir. O'zbek tilidagi *gullarda*, *berishdi*, *borayaptilar*, *borsalar*, *kitoblarni*, *ukamlarga*, *tezroq*, *yozmoq* so'zlari uch, to'rt va ikki morfemali so'zlar- dir. Biroq bu so'zlarning hammasi ham yasama so'z sifatida baholanmaydi. Ular ko'p morfemali tub so'zlardir. Ko'p morfemali so'z yasama deb baholanar ekan, uning tarkibida yasovchi elementlarning ishtirok etishi shart bo'ladi.

So'z yaxlit olingan, universal til birligi hisoblansa, morfema ana shu so'z tarkibiga kiruvchi semantik-morfologik birlikdir. Shunga ko'ra, so'z va morfemani bir-biriga hech vaqt tenglashtirib bo'lmaydi. Morfemalar mustaqil holda olganda, leksik ma'no anglata olish va anglata olmaslik xususiyatlariga ega bo'lib, ana shu asosiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni ikki turga ajratish mumkin: 1) o'zak morfemalar; 2) affiks morfemalar (ba'zi adabiyotlarda asosiy morfema va yordamchi morfema deyilsa, ba'zi adabiyotlarda yetakchi morfema va ko'makchi morfema deb atalgan).

Negizlarga qo'shilib, uning leksik-grammatik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan har xil ma'nolarni ifodalashga xizmat qiluvchi morfemalar **affiks morfemalar yoki morfologik shakllar** deyiladi. Ular mustaqil holda qo'llana olmaydi va ma'no ham anglatmaydi. O'zak morfemalar so'zda asosiy leksik ma'no tashuvchi qism bo'lgani sababli alohida mustaqil so'z sifatida qo'llana oladi va qarindosh so'zlar tarkibida ham o'zak morfema sifatida qatnasha oladi.

Morfologik shakllar (affiks morfemalar) o'zak morfemalarga nisbatan morfemalar sifatida baholanadi. Ular turli-tuman negizlarga (tub va yasama negizlarga, ot, fe'l, sifat, son, olmosh, ravish... so'z formasidagi negizlarga) ergashib keladi va shunga ko'ra ergash morfemalar deb ham ataladi. Ular har bir konkret holatda konkret bir negiz turiga qo'shilib keladigan shu konkret negiz ma'nosi bilan bog'liq holda, har qo'llanishda konkret bir ma'no ifodalaydi: a) negizlardan konkret leksik ma'noli yangi so'zlar hosil qiladi: *ishla*; b) negizlarga qo'shilib konkret bir grammatik ma'noni ifodalaydi: *kitobim*.

Turkiy tillar, jumladan, boshqird tilidagi affiksal morfemalarning tabiatini hali to'liq aniqlanmagan, ammo shunga qaramay, affikslarni ma'no va vazifalariga ko'ra uch guruhga: so'z yasovchi, shakl yasovchi va flektivga ajratgan holda o'rganishni



maqsadga muvofiq deb bilamiz³. Tatar, qozoq, o‘zbek, turkman, qorachay-bolqar va uyg‘ur tilshunoslarining aksariyati ham shu tamoyilga amal qiladilar⁴.

Demak, boshqird tilidagi so‘z o‘zining morfemik tuzilishi bilan quyidagicha tavsiflanadi: a) so‘z morfemalardan iborat bo‘lib, uning tarkibiy elementlari morfema, allomorf va morfema variantlari; b) morfemalar ma’nosи, joylashishi va vazifasiga ko‘ra o‘zak va affiksga bo‘linadi; v) o‘zak morfema so‘zning leksik ma’noni o‘z ichiga olgan asosiy qismi; d) affiks - xizmat morfemasi; affikslar ma’no va vazifalariga ko‘ra so‘z yasovchi, shakl yasovchi va flektivga bo‘linadi; e) boshqird tilida tegishli affikslardan tashqari chet tili affikslari (prefiks va qo’shimchalar) ham ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. Jurafsky & J.H. Martin, Speech and language processing : an introduction to natural language processing, computational linguistics, and speech recognition (Upper Saddle River, N.J. : Prentice Hall, 2000).
2. Ёрмат Тожиев. Ўзбек тили морфемикаси. Тошкент — 1992, bet-5
3. Баскаков Н. А. Историко-типологическая морфология тюркских языков: Структура слова и механизм агглютинации. М.: Наука, 1979. 274 с.
4. Ганиев Ф. А. Словообразование в татарском языке. Казань: ИЯЛИ АН РТ, 2010. 728 с. Ишбаев К. Г. Башкирский язык: Морфемика. Словообразование. Уфа: Гилем, 2000. 247 с. Тенишев Э. Р. Введение // Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Морфология. М.: Наука, 1988. С. 8.

³ Баскаков Н. А. Историко-типологическая морфология тюркских языков: Структура слова и механизм агглютинации. М.: Наука, 1979. 274 с.

⁴ Ганиев Ф. А. Словообразование в татарском языке. Казань: ИЯЛИ АН РТ, 2010. 728 с. Ишбаев К. Г. Башкирский язык: Морфемика. Словообразование. Уфа: Гилем, 2000. 247 с. Тенишев Э. Р. Введение // Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Морфология. М.: Наука, 1988. С. 8.